

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**AL-XORAZMIY NOMLI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA FAKULTETI BT va STI YO`NALISHI 4-
BOSQICH 401-GURUH TALABASI**

***HAYITOVA GULZODA
QADAMBOYEVNANING***

«4-sinfda she`riy asarlarni o`rganish metodikasi» mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Ta'lim yo`nalishi: «Boshlang`ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish»
Bakalavr darajasini olish uchun**

Ilmiy rahbar: dots.Jumaniyozova M

Taqrizchi: VPKQTMOI o`qituvchisi Otajonova Yu.

**Ish ko`rildi va himoya
qilishga ruxsat berildi.
«BTN va M» kafedrasining
2012-yil «__05__» dagi
№_10__ bayonnomasi.
Kafedra mudiri: f.f.n. Ollaberganova S.**

Urganch – 2012-yil.

Mavzu: 4-sinfda she'riy asarlarni o'rganish metodikasi.

REJA:

Kirish

I bob

4-sinfda she'riy asarlarni o'qish darslarining maqsad –vazifalari va unda o'qiladigan she'riy asarlar mundarijasi.

1.1. 4-sinfda she'riy asarlarni o'qish darslarining maqsad va vazifalari.

1.2. 4-sinf „O'qish kitobi“darsligida berilgan she'riy asarlar mazmun-mundarijasi.

II bob

4-sinfda she'riy asarlarni o'rganish yo'llari.

2.1. 4-sinfda she'rlarni o'rganish metodikasi.

2.2. 4-sinfda she'riy hikoya (epik she'r)larni o'qish yo'llari.

2.3. She'riy asarlarni o'rganishda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash.

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar

KIRISH

Muhtaram yurtboshimiz I.A.Karimov “Xalqimizning ma’naviy boyliklarini, jahon sivilizatsiyasi eng yaxshi yutuqlarini o`zida mujassamlashtirgan eng muhim vazifasidir. Faqat shu asosdagina oldimizga qo`yilgan yuksak maqsadlar barchamiz uchun hayotimizning mazmuniga aylanib qolgandagina millatning ongli vatanparvarlik ruhini yuksaltirib, rivojlanayotgan mamlakatlar kabi taraqqiyot yo`lidan ildam qadam tashlash imkoni tug`ildi”,-deb ta’kidlagan edi.

Darhaqiqat, bugungi kunda O`zbekistonning jahon miqyosida munosib o`rin egallashi uchun ma’naviy, siyosiy, iqtisodiy yo`nalishlarda g`oyat muhim va murakkab ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, bu borada O`zbekiston Respublikasining “Ta’lim to`g`risida”gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dastur”i, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O`zbekiston Respublikasida umumiy o`rta ta’limni tashkil etish to`g`risida”gi qarorlari ta’limni muvaffaqiyatli tashkil qilish omillari bo`lib xizmat qilmoqda. Komil insonni voyaga yetkazishda boshlang`ich ta’lim shubhasiz, mustahkam poydevor ro`lini o`ynaydi.

Ma’lumki, boshlang`ich sinf o`quvchilariga ta’lim-tarbiya berishdagi muhim vazifalarning asosiy qismi o`qish darslarida amalgam oshiriladi. O`qish va nutq o`stirish darslari jarayonida Dasturda belgilangan mavzular asosida o`quvchilarga muayyan bilim beriladi. O`qish ko`nikmalarini takomillashtira borish bilan bir qatorda o`quvchilarni ma’naviy barkamol inson ruhida tarbiyalash vazifasi ham diqqat markazida bo`ladi. Boshlang`ich ta’limda o`qish va nutq o`stirish dasturining maqsad va vazifalariga ko`ra o`qish darslari orqali o`quvchilar to`g`ri, ongli, ravon, tez va ifodali o`qishga o`rgatiladi. Bolalar bu jarayonda kitob bilan ishlash ko`nikmasiga ega bo`la boradilar va ularda kitobga muhabbattuyg`usi uyg`otiladi.

O`quvchilar ongida tevarak-atrofdagi narsa va hodisalar haqidagi tasavvur va tushunchalarini to`g`ri shakllantirish uchun ularning yoshi va bilim saviyasi hisobga olinishi talab etiladi

O`quvchilarni o`z vataniga, xalqiga muhabbat, butun dunyo xalqlariga nisbatan do`stlik, birodarlik ruhida tarbiyalash maqsadida vatan va uning tabiati, istiqloq, xalqimiz haqidagi badiiy adabiyot namunalari o`qitiladi.

Boshlang`ich sinf „O`qish kitobi” darsligida o`quvchilar ijtimoiy-tarixiy va badiiy asar namunalari, shuningdek, ilmiy-ommabop maqolalar matnlari, xalq og`zaki ijodidan namunalari bilan tanishadilar. Xususan, 4-sinf „O`qish kitobi” darsligi ham ana shunday matnlarni o`z ichiga oladi.

4-sinf „O`qish kitobi” darsligining mualliflari S. Matchonov, A. Shojalilov, X. G`ulomova, Sh. Sariyev, Z. Dolimovlar bo`lib uning to`ldirilgan nashri Toshkentda, „Yangiyo`l polygraph servise” nashriyotida nashr qilingan. Darslik Davlat ta`limi standarti talablariga javob beruvchi „O`qish va nutq o`stirish” dasturi asosida yaratilgan. Unda g`oyaviy, tematik, estetik, qisman mavsumiy tizimlar hisobga olingan. U o`z navbatida bolaning tevarak – atrofdagi voqelikni idrok etishni ko`zda tutadi.

4-sinf „O`qish kitobi” darsligida 14 ta bo`lim berilgan:

1. „Istiqloqim-istiqbolim”
2. „O`zbekiston- vatanim manim”
3. „Oltin kuz”
4. „Ma`naviyat – qalb quyoshi”
5. „Xalq og`zaki ijodi”
6. „Kumush qish”
7. „Vatanimiz o`tmishidan”
8. „Nima yaxshi-yu nima yomon”
9. „Hayvonot olamida”
10. „Zumrad bahor”
11. „Yashasin tinchlik, bor bo`lsin do`stlik ”
12. „Ajodlarimiz – faxrimiz”
13. „Jahon bolalari adabiyoti”
14. „Yoz- o`tadi soz”.

Bu bo`limdagi materiallar bilan tanishish orqali o`quvchilar mustaqil O`zbekistonimizning ijtimoiy-ma'naviy hayoti, tabiati, vatanimaizda amalga ishirlayotgan bunyodkorlik ishlar , mustaqillikni saqlab qolishda yoshlarning vazifalari haqidagi bilimlarga ega bo`ladilar.

Ulug` ajdodlarimiz hayoti va faoliyatiga, o`zbek xalqining mehnatiga bag`ishlangan mavzularni o`rganish o`quvchilarni ma'naviy, ma'rifiy va axloqiy jihatdan tarbiyalashda alohida o`rin tutadi. Shuningdek, bolalarda vatanparvarlik, nehnatsevarlik, halollik, chidamlilik, talabchanlik kabi sifatlarni tarbiyalashga, umuman, ma'naviy barkamol insonni tarbiyalab, voyaga yetkazishga ko`maklashadi. Zero, yoshlar mustaqil mamlakatimizning yetuk mutaxasislari bo`lishi uchun qayg`urish har birimizning muqaddas burchimizdir.

Dastur bo`limlaridan o`rin olgan ayrim mavzular orqali o`tmishdagi shart-sharoit, turmush tarzi haqida tushuncha beriladi. Vatanimiz sarhadlari, tabiati, jamiyat haqidagi bilimlari boyitiladi va umumlashtiriladi.

Dasturda she'riy asarlarni yod oldirishga, turli janrlar: hikoya, she'r, ertak, masal, rivoyat, qo`shiq, doston, maqol, ibora, latifa, topishmoq va tez aytishlar bilan tanishtirishga e'tibor berilgan.

Darslikda berilgan she'riy asarlar sarmoqli o`rinni egallaydi. Bular yosh avlodni she'riyatning sehrlil olamiga oshno etadi. Ularning ruhiy dunyosini boyitadi, nafosat hissini tarbiyalaydi.

Ma'lumki, she'rlarni o`rganish metodikasi ilmiy- metodik adabiyotlarda o`z aksini topgan. Xususan, K.Qosimova, S.Matchonov va boshqalarning „Ona tili o`qitish metodikasi” darsligida, K.Qosimovning „Boshlang`ich sinflarda ona tili o`qitish metodikasi” darsligida, shuningdek, M.Yusupovning „O`qish va yozuv darslarining samaradorligini oshirish”, Ashrapova va M.Odilovalarning „Ona tili o`qitish metodikasi” darsligida bu masala keng yoritilgan. Shu bilan birga Z.Dolimovning „Sheriy asarlarni o`rganish” maqolasida ham ularni o`rganish yo`llari yoritib berilgan. Shuningdek, „4-sinfda o`qish darslari” metodik qo`llanmasida ham she'r o`qish darslarining ishlanmalari berilgan. She'riy

asarlarni o`rganish yo`llari alohida tadqiq qilinmagan masalalardan biri hisoblanadi. Shu bois ushbu bitiruv- malakaviy ish mavzusi dolzarblik kasb etadi. Mavzuning dolzarbligidan kelib chiqib o`z oldimizga 4-sinf „O`qish kitobi” darsliklarida berilgan she`riy asarlarni o`rganish yo`llarini ochib berishni maqsad qilib oldik.

Tadqiqot vazifalari:

- 4-sinfda she`riy asarlarni o`qish darslarining maqsad – vazifalari ko`rsatib berish;
- 4-sinfda o`rganilayotgan she`riy asarlarning mazmun-mundarijasini yoritib berish;
- 4-sinfda o`quvchilarning she`riy asarlarni ifodali o`qish malakalarini takomillashtirish yo`llarini o`rganish;
- 4-sinfda she`rlarni o`rganishda interfaol metodlarni qo`llash yo`llarini ko`rsatish;
- 4-sinfda she`riy asarlarni o`rganishning ta`lim-tarbiyaviy jihatlarini ochib berish;

Tadqiqotning metodlari: tadqiqot jarayonida ilmiy-metodik adaiyotlarni o`rganish va tahlil etish, analiz va sintez, kuzatish va taqqoslash metodlaridan foydalaniladi.

Tadqiqotning metodologik asoslari:

O`zbekiston Respublikasining „Ta`lim to`g`risida”gi qonuni, „Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”, „Barkamol avlod yili” Davlat dasturi, „Boshlangich ta`lim konsepsiyasi”, „Boshlang`ich ta`limning DTS va o`quv dasturi”, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining ta`lim-tarbiya to`g`risidagi fikrlari va ma`ruzalari, mavzuga oid ilmiy-uslubiy adabiyotlar xizmat qildi.

Tadqiqotning tuzilishi: Ish kirish, II bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat. Uning qo`lyozma hajmi 92 sahifani tashkil qiladi.

I bob

4-sinfda she'riy asarlarni o`qish darslarining maqsad-vazifalari va unga o`qiladigan she'riy asarlar mundarijasi.

1.1. 4-sinfda she'riy asarlarni o`qish darslarining maqsad va vazifalari.

O`qish inson hayotida muhim ahamiyatga ega, o`qish orqali inson borliq, jamiyat haqida bilimga ega bo`ladi. O`qishni bilmagan odamning ko`zi ojiz kishidan farqi yo`q. Masalan eski maktablarda o`qish matindagi so`zlarga izoh berish mazmunini tushuntirishga, o`qilganini qayta hikoyalashgadam berish. ,umuman olganda, o`qishning ongli bo`lishiga mutloq e`tibor berilmagan. Ularda ko`roq to`g`ri talaffuzga qiroat bilan o`qishga ifodali o`qishga katta e`tibor beriladi.

Hozirgi maktablarda o`qish izohli o`qish metodikasi olib boriladi. O`qish darslarida o`quvchilar tabiat, jamiyat bilan yashovchi kishilar hayoti haqidagi , ularning o`tmishi, hozirgi yashash hayoti haqida mashhur kishilar to`g`risida olib boriladi. Ularga tabiat, ob-havo, boyliklar, hayvonot dunyosi va boshqalar haqida bilimlar beriladi. Bilim berish bilan o`quvchi shaxsi tarbiyalanib boradi. Sinfda o`qish darsligiga ta`lim-tarbiya vazifalari kompleks ravishda hal qilinadi. Ularning ijobiy sifatlari shakllanadi. Ular aqliy estetik jihatsdan kamol topadilar. Mustaqil ravishda bilim olish asoslarini egallaydi. 4-sinf "O`qish kitobi" darsligini tahlil qilish fikrimizni tasdiqlaydi. Bu kitobning mazmuni va metodik materiallari (matnni tahlil qilish, ularni tekshirish va savollar, mustaqil ishlar) o`zaro bog`liq holda beriladi. Ta`lim-tarbiyaviy vazifalarni belgilaganimizda amalgam oshirish uchun o`qish darslarida matnni o`qishgina emas, balki matn ustida kerakli ishlarni bajarish muhimdir. O`qish darslarida ta`lim-tarbiya ishlari o`quvchilarga bilim-ko`nikmalarni egallash, ularda ma`naviy barkamol kishi uchun zarur bo`lgan shaxs sifatlarni shakllantirish bilan bog`lab amalgam oshiriladi.

O`qish kitobiga kiritilgan asarlar mavzusida vatan va istiqloq haqidagi bilimlar o`quvchilarga sinfdan sinfga o`tish bilan tobora guruhlashtirib boriladi. Vatan, uning mustaqilligi hamda uning sharaflil o`tmishi qahramonona hozirgi kuni o`qish kitobida markaziy mavzu hisoblanadi. O`quvchilar vatan tushunchasi ona

vatan tabiati haqidagi aniq tasavvurni chuqurlashtiradigan mehnat ahli va ularning kasbi haqidagi, yurtimizning mustaqilligi, dunyodagi ilg`or mamlakatlar bilan hamkorlik haqidagi asarlarni o`qish jarayonida asta-sekin shakllana boradi. Shunday qilib, vatan tushunchasi bolalarning qabul qilish va umumlashtira olish uchun muvofiq aniq maateriallar orqali singdiriladi.

O`qilgan asarlarning qimmatini shundaki, u o`quvchi bilimi kengaytirish bilan bir vaqtda tarbiyaviy vazifalarni ham hal qiladi. V.A. Suxamliniskiy bu haqda shunday deydi: “bolalar dunyoni va o`z-o`zini bila boorish bilan birga katta avlodlar yaratgan moddiy va ma`naviy boyliklar uchun o`zining ma`sulligi ozdan bila olishlari kerak... Bolaga yaxshilik va yomonlikni, to`g`rilikni yaxshi ko`rish imkonini berish kerak. Yaxshilik unga quvonch, zavq, hayajon, ma`naviy go`zallikka erishish ishtiyoqini beradi. Yomonlik qahr-g`azab, murosasizlik uyg`otadi. Haqiqat va adolat uchun kurashga chorlovchi ma`naviy kuchga to`ldiradi.”

O`qish kitobiga kiritilgan tabiat va kishilar mehnati haqidagi yuksak badiiy asarlarni o`qib, tahlil qilish bilan bolalar o`z bilimlarni borliq haqidagi yangi ma`lumotlar bilan boyitadi. Ularda tabiatga muhabbat tarbiyalandi. Tabiat boyliklariga ehtiyotkorona munosabatda bo`lishga odatlanadi.

4-sinf “O`qish kitobi” darsligida bolalarning nafosatli bo`lib kamol topishlariga alohida e`tibor qaratiladi. 4-sinf “O`qish kitobi” darsligidagi asarlar o`quvchilar tomondan qiziqib o`qiladi va mazmuni berilib eshitiladi. Ayrim matnlarni bolalarga ta`sir etishi uchun magnet tasmlarga yozib eshittirish va ulaning qabul qilish faoliyatini faollashtiradi. Asarni estetik idrok etish, uning bolalar tomonidan his-tuyg`u va ko`tarinki ruh bilan qabul qilinishiga erishish uchun matnlarni ifodali o`qib berish, mazmunini tahlil qilish rasmlarga qarab gapirib berishga alohida e`tibor qilinadi. 4-sinf “O`qish kitobi” danbit qator she`rlar ham o`rin olgan. O`zbek xalqining atoqli shoirlari qalamiga mansub maktab, kitob, kehnat, ilm-hunar, ulug` insoniy fazilatlar, tabiat va uning fasllar haqidagi she`rlar o`quvchilarda estetik zavq uyg`otishga xizmat qilishi shubhasizdir. She`riy asarlarni bolalarning aqliy jihatdan o`shishga ham katta

yordam beradi. O`qilgan she`r matni ustida muhokama yuritish, undagi asosiy masalalarni ajratish, syujetning rivojlanishini kuzatish, unda ishtirok etuvchi shaxslarning xulq-atvorini izohlash, she`r tilini tahlil qilish, o`quvchilarning mantiqiy tafakkurini taraqqiy ettiradi. Taqqoslash, umumlashtirish qobiliyatlarini o`stiradi. She`rlarni o`qish darslarida o`quvchilar so`z boyligining oshishi va lug`atining faollashuviga alohida ahamiyat beriladi. She`rlarni o`qish o`quvchilarning yozma nutqlarini o`stirish bilan ham bog`liqdir. Bu matndagi ayrim jumla va abzaslarni ko`chirib yozish, reja tuzish, lug`at yozish kabilardan iborat bo`lib o`quvchilarning lug`at ustida faol ish olib borishlarini ta`minlaydi. Bulardan tashqari, matndagi ayrim epizodlar asosida bayon yozish, tabiatini mustaqil kuzatishni yozib boorish kabi ishlar ham bajariladi. She`rlarni o`qish darslarida quyidagi masalalarga e`tibor beriladi.

1. O`quvchilarning ifodali o`qish malakalarini o`stirish.
2. O`quvchilar dunyoqarashini kengaytirish.
3. O`quvchilarda aqliy yetuklik, ma`naviy go`zallik, jismoniy kamolotni tarbiyalash.
4. O`quvchilarning odobli, axloqli, estetik didli bo`lishga yordam berish.
5. O`quvchilarning og`zaki va yozma nutq malakalarini takomillashtirish.
6. Ona tili va adabiyot bilan tanishtirish hamda ularga nisbatan muhabbat tuyg`ularini uyg`otish.

O`qituvchi shu kabi vazifalarni zo`r metodik mahorat bilan ta`lim tarbiya birligiga rioya qilib hal etmog`i lozim.

1.2. 4-sinf “O`qish kitobi” darsligida berilgan she`riy asarlar mazmun mundarijasi.

Bugungi kunda o`sib kelayotgan yosh avlofni vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, ularda ma`naviy barkamol insonga xos fazilatlarni shakllantirish boshlang`ich ta`limning o`qish darslarida amalgam oshiriladigan muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, o`qish darslarida o`quvchilarning tez,

ongli, to`g`ri, ifodali o`qish malakalari ham shakllantiriladi. Shu bois 4-sinf o`quvchilarning tayyorgarlik darajasiga DTS da quyidagi talablar qo`yiladi:

Bilim:

- hikoya, she`r, ertak, topishmoq, maqol, tez aytish, latifa, rivoyat, hikoyat, masal, ibora, afsonani janriga ko`ra farqlay olish;
- badiiy asar mazmuniga munosabat bildira olish;

Ko`nikma:

- matndagi so`zlarning ma`nolarini izohlay olish;
- maktab kutubxonasidagi kitoblardan unumli foydalana bilish;
- asardagi qahramonlar haqida kichik hikoya tuza olish;
- bolalar yozuvchilarining turli janrdagi asarlarni mustaqil ravishda tanlab o`qiy olish.

Malaka:

- ertak, topishmoq, maqol, tez aytish, xalq qo`shiqlari, qissalardan parchalarni to`g`ri, ongli, ifodali, sidirg`a o`qish;
- o`qilgan badiiy asarga reja tuzish;
- asar mazmuni qayta hikoyalashda o`xshatish;
- asar mazmunini qisqartirib, qayta hikoyalash;
- o`qigan asari yuzasidan o`z fikri mulohazalarini erkin bildirish;
- bir daqiqada 60-70 ta so`z o`qish;
- o`quv yili yakunida 15 ta she`rni yoddan ifodali aytib berish;
- mustaqil o`qish uchun bir mavzu doirasida bir nechta asar tanlay bilish va ifodali o`qish;
- o`qilgan asar asosida kichik sahnalar qo`yish.

O`qish darslari “O`qish va nutq o`stirish ”dasturiga asosan o`quvchilarning DTS talablari bo`yicha o`zlashtirishlari ko`zda tutilgan o`quv-biluv ko`nikmalari hamda bilimlarni o`zida mujassamlashtirgan “O`qish kitobi” darsliklari asosida tashkil qilinadi.

4-sinf “O`qish kitobi” darsligining mualliflari S.Matchonov, A.Shojalilov, X.G`ulomova, Sh.Sariyev, Z.Dolimovlar bo`lib, uning to`ldirilgan nashri 2010 yilda Toshkentda 2010-yilda chop qilingan.

Darslikni tuzishda g`oyaviy, tematik, estetik, qisman mavsumiy tizimlar hisobga olingan.

4-sinf «O`qish kitobi» 14 bo`limdan iborat. Darslikning har bir bo`limi ma`lum bir maqsad asosida tuzilgan.

Birinchi bo`lim «Istiqlolim-istiqbolim» bo`limida xalqimiz mustaqilligi, mustaqillik yillarida Respublikamizda erishilgan muvaffaqiyatlar haqida fikr yuritiladi.

Ikkinchi bo`lim: «O`zbekiston vatanim-manim» deb nomlangan. Bu bo`limda o`quvchilar o`zbek xalqining buyuk xalq ekanligi, uning donishmand farzandlarni butun dunyo bilishini o`rganib, ularda vatanparvarlik, insonparvarlik sifatlari tarbiyalanadi. Bu bo`limda ular serquyosh o`lkamiz, Respublikamiz poytaxti-Toshkent, O`zbekistonimiz haqidagi ma`lumotlar bilan tanishtiriladi.

Uchinchi bo`lim «Oltin kuz» da o`quvchilar kuz fasli, undaga o`tiladigan sayllar, kuzda bajariladigan ishlar haqidagi ma`lumotlarni o`rganadilar.

To`rtinchi bo`lim «Ma`naviyat-qalb quyoshi» bo`limida insonning eng go`zal fazilatlari, odobi, haqida gap boradi. Bu bo`limni o`rganish orqali o`quvchilar kundalik hayotidagi insoniy munosabatlarni, undagi axloq me`yorlarini, umuminsoniy sifatlarni bilib o`zlashtirib oladilar.

«Xalq og`zaki ijodi» deb nomlangan beshinchi bo`limda xalq og`zaki ijodini o`rganishga bag`ishlangan, bunda o`quvchilar xalq qo`shiqlari, ertaklar, topishmoqlar haqida ma`lumotlar oladilar. Ularning tarbiyaviy jihatlari bilan yaqindan tanishadilar, ularning dunyoqarashlari, tafakkuri, ruhiy olami boyiydi.

Oltinchi bo`lim «Vatanimiz o`tmishidan» nomli bo`lim orqali buyuk ajdodlarimiz Pahlavon Mahmud, Alisher Navoiy kabi buyuk insonlar haqida ma`lumotga ega bo`ladilar. Ularning hayoti haqidagi rivoyatlarni o`rganadilar.

«Kumush qish» bo`limi bolalarning eng sevimli fasli bo`lgan qishning go`zalligi, bu faslning o`ziga xos xususiyatlari xususida ma`lumot beradi.

Sakkizinchi bo`lim «Nima yaxshi-yu, nima yomon?» deb nomlangan bo`lib, unda o`quvchilardan umuminsoniy sifatlarni tarbiyalashga qaratilgan mavzular o`z aksini topgan. Unda insonning eng go`zal fazilatlaridan-odoblilik, to`g`riso`zlik, kamtarlik, mehnatsevarlik kabilar haqida ma`lumotlar beriladi. O`quvchilarning shu insoniy fazilatlarini egallashlariga alohida urg`u beriladi.

«Hayvonot olamida» deb nomlanuvchi to`qqizinchi bo`limda turli hayvonlar, parrandalar, ularning hayotiga doir ma`lumotlar beriladi. Ularning hayot tarziga, o`zlariga xos xususiyatlariga doir hikoyalar bilan tanishadilar. Ayiqni engan mard cho`pon haqidagi hikoyani o`rganadilar.

O`qish kitobining o`ninchi bo`limi «Zumrad bahor» deb nomlanadi. Bu bo`limda o`quvchilar bahor fasli, unda o`tadigan bayramlar, bahorda bajariladigan ishlar haqidagi ma`lumotlar bilan tanishadilar.

«Yashasin tinchlik, bor bo`lsin do`stlik» deb nomlangan o`n birinchi bo`limda tinchlik-hayot, mehnat, baxt asosi ekanligi, tinchlik uchun kurash har bir sof vijdonli inson burchi ekanligi to`g`risida ma`lumot beriladi. Hayotning farovonligi, mehnat qilish, o`qish-dunyodaga tinchlik bilan bog`liqligi xususidagi tasavvurlar shakllantiradi.

O`n ikkinchi bo`lim «Ajdodlarimiz-faxrimiz» deb nomlanadi. Bu bo`limda o`zbek xalqining buyuk farzandlari, ularning hayotidan ayrim lavhalar haqida ma`lumotlar beriladi. Buyuk ajdodlarimiz To`maris, Najmiddin Kubro, Beruniy, Alisher Navoiy kabi allomalarning mardligi, jasurligi, insonparvarligi kabi sifatlari tasvirlanadi. Bu bo`limda o`quvchilarni millatimiz faxri bo`lgan buyuk allomalar hayoti haqidagi rivoyatlarni o`rganadilar.

O`n uchinchi bo`limda jahon bolalar adabiyotidan namunalar beriladi. Bolalar G.X. Andersen, Aka-uka Grimmlar, F. Erdinch, J. Svift, A.S. Pushkin kabi butun dunyo bolalari sevib mutolaa qiladigan yozuvchi va shoirlarning asarlari bilan yaqindan tanishadilar. Ular yaratgan qahramonlarning ijobiy xislatlarini o`rganadilar.

«Yoz o`tadi-soz» deb nomlangan oxirgi o`n to`rtinchi bo`limda bolalarning sevimli fasli yoz, undagi tabiat manzaralari, yozgi kanikuldagi dam olish haqida

ma'lumot beriladi. Yoz faslini tasvirlovchi she'rlar, asarlar bilan yaqindan tanishadilar.

4-sinflarda sinfdagi o'qish darslarida o'quvchilar darslikdagi materiallarni o'rganish jarayonida to'g'ri, ongli, ifodali, tez va ravon o'qishga o'rgatiladi. O'qituvchi o'quvchilarning ongli o'qish malakalarini taraqqiy ettirishni diqqat markazida tutadi, chunki ongli o'qish matn mazmunini o'zlashtirish bilan bevosita bog'liq. Bu sinflarda o'quvchilarda borliq haqida to'g'ri tasavvur va tushuncha xosil qilinadi, ya'ni bunday darslarda o'quvchilar aniq predmetlar, faktlar, ayrim hodisa-voqealar bilan tanishadilar. O'quvchilar, ayniqsa, badiiy asarlarni sevib o'qiydilar.

Dasturda milliylik hisobga olingan hamda darslikdagi matnlarning xilma-xil bo'lishi nazarda tutilgan. Xususan, unda nasriy badiiy asarlar, ilmiy-ommabop asarlar bilan bir qatorda she'riy asarlar ham o'rin olgan.

She'r - ohang jihatidan ma'lum bir tartibga solingan, his-tuyg'u ifodasi sifatida vujudga kelgan hayajonli ritmik nutq. She'riy nutqni ohang jihatidan ma'lum bir tartibga solish vositalari ritm (bir-biriga monand kichik bo'laklarning izchil va bir me'yorda takrorlanib kelishi) va qofiya (misralarning oxirida keladigan ohangdosh so'zlar) hisoblanadi.

4-sinf "O'qish kitobi" darsligida berilgan she'riy asarlarning mavzu doirasi ancha keng bo'lib, ular ona tabiat, yil fasllari, xalq og'zaki ijodi, mehnatga muhabbat, asosiy bayram sanalari, milliy istiqlol va ma'naviyat kabi umumiy mavzular doirasida birlashtirilgan.

4-sinf darsligidan quyidagi she'riy asarlar o'rin olgan:

1. „Istiqlohim-istiqbolim” bo'limida A.Oripovning “Iqboli buyuksan” she'ri berilgan.
2. „O'zbekiston- vatanim manim” bo'limida Zafar Diyorning “Serquyosh o'lka”, M.Shayxzodaning “Toshkentnoma” dostoni, Abdulla Oripovning “Dehqonbobo va o'n uch bolakay qissasi” she'riy hikoyasi, M.A`zamovning “Mardlik va aql yorug`lik” she'riy hikoyasi berilgan.

3. „Oltin kuz” bo`limida Sulaymon Rahmonning “Dehqon” she’ri va Sh.Sa’dullaning “Kuz” she’ri berilgan.
4. „Ma’naviyat –qalb quyoshi” bo`limida Munavvarqori Abdurashidxonovning “Har kim ekkani o`rar” she’ri hikoyasi bor.
5. „Xalq og`zaki ijodi” bo`limida “Boychechak”, “Oftob chiqdi olamga”, “Laylak keldi-yoz bo`ldi”, “Xop` hayda” qo`shiqlari matni, A.Obidjonning “Bo`rining tabib bo`lgani haqida ertak” adabiy ertagi, Sh.Sa’dullaning “Laqma it” she’riy ertagi, G`.Gulomning “Buni toping, qizlarim” she’riy topishmogi berilgan.
6. „Kumush qish” bo`limida Quadrat Hikmatning “Qish to`zg`itar momiq par” va T.Adashboyevning “Qish” she’rlari o`rin olgan.
7. „Nima yaxshi-yu nima yomon” bo`limida A.Oripovning “Sharq hikoyati” she’riy hikoyasi, Miraziz A`zamning “Nurxon bilan Burxon” she’ri, Muhammad Rahmonning “It-mushuk o`yini” she’ri, Sulton Jo`raning “Kimning xati chiroyli” she’ri, G`.G`ulomning “O`ylashni o`rganamiz” she’riy hikoyasi hamda Mirtemirning “Qush tili” she’ri berilgan.
8. „Hayvonot olamida” bo`limida G`afur G`ulomning “Ola buzoq” va Anvar Obidjonning “Jo`ja” she’rlari o`rin olgan.
9. „Zumrad bahor” bo`limida Quadrat Hikmatning “Bahor”, Habib Rahmatning “Jala darakchisi”, Mirtemirning “Tut” mavjud.
10. „Yashasin tinchlik, bor bo`lsin do`stlik ” bo`limida Shukur Sa’dullaning “Tinchlik qushi haqida men o`qigan she`r”, U.Abduazimovanning “Tinchlik nima” berilgan.
11. „Ajdodlarimiz – faxrimiz” bo`limida T.Adashboyevning “Navoiy bobomlar” she’ri berilgan.
12. „Yoz- o`tadi soz” bo`limida Sh.Sa`dullaning “Yoz”, Qambar O`tayevning “Non qayerdan keladi?”, Zafar Diyorning “Suv bilan suhbat” she`rlari berilgan.

Darslikning ikkita bo`limida she’riy asarlar berilmagan. Bular: “Jahon adabiyoti” va “Vatanimiz o`tmishidan” bo`limlaridir.

“o`qish kitobi” darsliklaridagi she’riy asarlar mundarijasi shundan dalolat beradiki, darslikdan lirik va epik she`rlar, ya’ni she’riy hikoyalar, doston, qo`shiq

va she'riy topishmoqlar o`rin olgan. Bu she'riy asarlarni o`rganishda ularning mavzusi, g`oyasi, hajmi va janriy xususiyatlaridan kelib chiqan holda turli xil metodlar qo`llaniladi. Ta`lim samaradorligini oshiruvchi vositalardan unumli foydalaniladi.

II bob

4-sinfda she'riy asarlarni o`rganish yo'llari.

2.1. 4-sinfda she'rlarni o`rganish metodikasi.

4-sinf "O`qish kitobi" darsligidan o`zbek shoirlarining har xil mavzudagi she`rlari salmoqli o`rin egallagan. Jumladan, "Istiqlolim-istiqbolim" bo`limida Abdullar Oripovning "Iqboli buyuksan", "O`zbekiston-vatanim manim" bo`limida Zafar Diyorning "Serquyosh o`lka", Abdulla Oripovning "Dehqonbobo va o`n uch bolakay qissasi", M.A`zamovning "Mardlik va aql yorug`lik", "Oltin kuz" bo`limida Sulaymon Rahmonning "Dehqon", "Kumush qish" bo`limida Qudrat Hikmatning "Qish to`zg`itar momiq par", "Nima yaxshi-yu nima yomon" bo`limida Muhammad Rahmonning "It-mushuk o`yini", "Kimning xati chiroyli", G`afur G`ulomning "Ola buzoq", Anvar Obidjonning "Jo`ja", "Zumrad bahor" bo`limida Qudrat Hikmatning "Bahor", Habib Rahmatning "Jala darakchisi", Mirtemirning "Tut", "Yashasin tinchlik, bor bo`lsin do`stlik" bo`limida Shukur Sa`dullaning "Tinchlik qushi haqida men o`qigan she`r", U.Abduazimovanning "Tinchlik nima", "Ajdodlarimiz-faxrimiz" bo`limida T.Adashboyevning "Navoiy bobomlar", "Yoz o`tadi soz" bo`limida Sh.Sa`dullaning "Yoz", Qambar O`tayevning "Non qayerdan keladi?", Zafar Diyorning "Suv bilan suhbat" she`rlari berilgan.

Ma`lumki, she`r ohang jihatdan ma`lum bir tartibga solingan, his-tuyg`u ifodasi sifatida vujudga kelgan hayajonli ritmik nutqdir. She`riy nutqni ohang jihatdan ma`lum bir tartibga solish vositalari ritm(bir-biriga monand kichik bo`laklarni izchil va bir me`yorda takrorlanib kelishi) va qofiya (misralarning oxirida keldigan ohangdosh so`zlar) hisoblanadi.

She`rni o`qiganda kichik yoshdagi o`quvchilar tabiat va jamiyat voqea-hodisalarining poetic tasviridan hayajonlanishlari muhim ahamiyatga ega.

Boshlang`ich sinflarda she`r tarzda yozilgan hikoyalar, ertaklar, ya`ni she`riy asarlar va lirik she`rlar o`qitiladi.

4- sinfda o`qitiladigan lirik she`rlarning tarbiyaviy ahamiyati katta. Ular o`qluvchilarning his-tuyg`usiga kuchli ta`sir qiladi, estetik didini tarbiyalaydi, ularda vatanparvarlik, vatanga intilish vago`zallikka muhabbat hislarini uyg`otadi. Lirik she`rlar ifodali o`qish orqaliginatinglovchi qalbiga to`liq borib yetadi.

Odatda, lirik she`rlarda shoirning ichki kechinmalari bilan birga tabiat ko`rinishi ham ifoda etiladi, shuning uchun she`rdagi peysaj tasvirini o`rganish ham alohida ahamiyatga egadir. Bundan maqsad tabiatdagi turli fasllar ko`rinishini inson qalbiga ta`sir etishini, Vatan tabiati va uning go`zalligidan ilhomlangan shoirning fikri va hissiyotini o`quvchilarga yetkazish hamda ularda emotsional kayfiyat uyg`otishdan iboratdir. Buning uchun o`rganiladigan asar mazmuniga qarab quyidagi metodik usullardan foydalanish mumkin:

1. Tabiat quchog`iga ekskursiya.
2. Rasm, kartinalarni namoyish etish.
3. Texnika vositalaridan foydalanish
4. Ifodali o`qish .
5. Suhbat va boshqalar.

4-sinfda lirik she`rlar mazkur metodik usullar asosida o`rganilsa, lirik qahramonning kechinmasi, ruhiy kayfiyati o`quvchini hayajonlantiradi, chunki shoirning fikr tushunchasi, hissiyoti, hayajoni, ovozi she`riy nutq ritmikasidan ifodali o`qish orqali jaranglab sado berib turadi.

Ekskursiya lirik she`rlarda ifoda etilgan peyzaj tasvirini puxta o`rganishga katta yordam beradi. Ekskursiya o`quvchilarni Vatan tabiatini kuzatishga , vatanimizning rang-barang go`zalligini idrok etishga o`rgatadi. Kuz faslining ko`rkam latofati, uning tillarang manzarasi, qishning sexrgar xususiyati, orombaxsh bahorning go`zalligi, yoqimli shabadasi, yozning ajoyib husn jamoli, bog-rog`lari daryo va jilg`alari o`rtoqlari ularning hammasi

ekskursiya orqali idrok etiladi. Ammo shuni unutmaslik kerakki, tabiat manzarasi kishilarni va ularning mehnati bilan birga kuzatiladi va ularga alohida e'tabor beriladi. Bunday ekskursiya o'quvchilarda Vatan tabiatiga qizg'in muhabbat uyg'otadi, uni yanada yashnatishga intilish paydo qiladi. Tabiat bilan ana shunday yaqindan amaliy aloqa bog'lash o'quvchilar tasavvurini boyitadi, ifodali o'qish mashg'ulotlarining jonli o'tishi uchun yordam beradi. Xullas, lirik asarlardagi peyzaj tasviri qanchalik puxta, atroflicha analiz etilsa, bolalar ham uni shunchalik ta'sirchanlik bilan ifodali o'qiydilar. O'qituvchi analizni tamomlagandan so'ng, lirik she'rni yana bir martgina ifodali o'qib beradi. Shunday mashg'ulot o'tkazgan vaqtdagina lirik she'rni ideyasi, badiiy xususiyatlari o'quvchilarga tushunarli bo'ladi.

4-sinf "O'qish va nutq o'stirish" dasturiga o'quvchilar Hamid Olimjon, Uyg'un, Zafar Diyor, A. Oripov, Quدرات Hikmat, T. Adashboyev kabi ko'plab yetuk shoirlarning qator lirik she'rlari o'rganiladi. Bunday she'rlar o'zining g'oyaviy-siyosiy va badiiy estetik yuksakligi bilan alohida ajralib turadi. Ularda Vatanimizning zavqiy va jozibador tabiati, husnkor fasllari, ko'rkam dalasi, qiradirlari, bog'lari, tog' va daryolari, sharbat to'la mevalari ana shu ajoyib vatan tabiati quchog'idaerkin, quvnoq va baztiyor yashab ijodiy mehnat bilan tanishtirishda ular ongida kommunistik g'oyalar paydo qilishda muhim rol o'ynaydi.

Demak, lirik she'rlar o'ynoqi, jarangdor, sermazmun, kishining his-tuyg'ulariga ta'sir etadi.

4-sinf "O'qish va nutq o'stirish" dasturiga muvofiq Quدرات Hikmatning "Qish to'zg'itar momiq par" she'rini o'rganish uchun 1 soat vaqt ajratilgan. Mana shu 45 minut vaqtdan unumli foydalanilmasa, mazkur she'rning mazmunini o'quvchilarga yetkazish qiyin. Odatda, 4-sinf "O'qish kitobi" ga kiritilgan lirik she'rlar yil fasllari bilan bog'lab o'tiladi. Ikkinchi tomondan, mavzuiy tamoyilga ham amal qilinadi. Shuning uchun Quدرات Hikmatning "Qish to'zg'itar momiq par" she'rini qish fasli bilan bog'lab

o`rganish maqsadga muvofiqdir. 4-sinf materiallarini rejalashtirilganda ana shu masalaga jiddiy e`tibor berilishi kerak.

Qudrat Hikmatning “Qish to`zg`itar momiq par” she`ri o`quvchilarni onavatan tabiati bilan tanishtiradi va ularning estetik zavqini o`stirishga xizmat qiladi. Mazkur she`rda bolalarning quvnoq hayoti bilan qish manzarasi o`zaro bog`liq holda tasvirlanadi. She`rni o`qigan yoshlarning vatanga muhabbat tuyg`usi estetikasi rivojlanadi. Ularning tabiatning go`zal manzarasidan behad zavqlanadilar. She`rning ana shu muhim ta`lim-tarbiyaviy ahamiyatini ochishda o`qituvchning metodik mahorati katta rol o`ynaydi.

“Qish to`zg`itar momiq par” she`rini o`rganish uchun qish faslida tabiatga ekskursiya, kirish suhbat, o`qituvchining ifodali o`qishi, analiz va mavzu yuzasidn suhbat, o`quvchilarning she`rni ifodali o`qishlar, yakuniy suhbat va yakuniy ifodali o`qishdan iborat qator metodik usullar qo`llanadi.

Sinfda she`rni o`rganishga qadar tabiatga ekskursiya uyushtirish lozim. Bu vaqtda o`quvchilar yanvar oyligidagi qish manzaralarini zavq bilan kuzatadilar . Ekskursiyada qish manzarasiga oid xalq maqollari va topishmoqlaridan ham foydalanish mumkin. Masalan:

Yoz yopinchog`ingni qo`yma,

Qishda o`zing bilasan. (Maqol)

Sayohat- tanga rohat. (Maqol)

Odamni po`stin emas, ish qizdiradi. (Maqol)

Oyog`i yo`q, qo`li yo`q, yo`lda turib yo`l boshlar. (Shamol)

Yozda kiyinadi, qishda yechinadi. (Daraxt)

Besh barmog`i bor, tirmog`i yo`q (Qo`lqop)

O`tda yonmaydi, suvda cho`kmaydi. (Muz)

Bunday xalq maqollari va topishmoqlaridan o`rinli foydalanish o`quvchilarning fikrlash qobiliyatini va kuzatuvchanligini o`stiradi.

Kirish suhbatida qish manzarasiga,tabiatga qilingan ekskursiya taassurotlari asos qilib olinadi. She`rni o`rganishda o`quvchilarning diqqati ular ko`rgan ,sezgan ,his etgan narsalarga jalb etiladi. Shundan so`ng o`qituvchi she`rni

ifodali o`qib beradi bu paytda o`quvchilar kitoblarini yopib qo`yib, she`rni diqqat bilan tinglaydilar.

O`qituvchi she`rni ifodali o`qish uchun oldindan tayyorgarlik ko`radi.

Buning uchun u she`rning vazni, qofiyalari, turog`i, urg`u va ohangi, pauza va tempini aniqlaydi.

Ifodali o`qish vazifalarini belgilab chiqadi. Masalan:

Savab bulut to`shagin,

Qish to`zg`itar momiq par,

Yerga serbar oq namat

Yozilganday yaltirar.

Bunda o`qish tempi o`rtacha. Asosiy vazifa vatanimiz tabiatiga o`quvchilarning havasini uyg`otish, undan zavqlanish hislari paydo qilishdir.

“Qish to`zg`itar momiq par” she`ri 7 bo`g`inli barmoq vaznida yozilgan, turog`i 4+3 shaklida, ikkinchi va to`rtinchi, oltinchi va sakkizinchi va hokazo misralari o`zaro qofiyadosh. O`qituvchi she`rning ana shu tomonlarini aniqlab chiqqandan so`ng, uning texnik belgilarini qo`yib chiqadi.

Pirpiratib ko`zini/

Avtobuslar o`tadi/

Qahraton qish hovruni/

Mo`rkon kabi yutadi/

She`rni tahlil qilish orqali o`quvchilarning g`oyaviy badiiy tomondan chuqurroq tushunib oladilar. Sher mazmuni yuzasidan qilinadigan suhbatning borishi 5-10 minutdan oshmasligi, qo`llaniladigan usullar o`quvchilarning faolligini oshirishga qaratilishi kerak. She`rning g`oyaviy mazmuni vatanimiz tabiatining go`zalligini tasvirlashdan iboratdir. She`rning tili sodda, shirador, o`xshatish sifatlash jonlantirishlarga boy, o`ynoqi va ritmik jarangdor.

O`qituvchi she`rning bir bandini doskaga yozib, uni qanday o`qish yo`llarini, ovozning o`rtacha balandligkda bo`lishni ta`kidlaydi va zarur ko`rsatmalar beradi:

Qorga deyman:-namuncha

Zeriktirding uchqunlab?

Yog`masdin-ku ilgari

Surunkasi uch kunlab.

Yetti bandli bu she`r o`rtacha tempda, sanash ohangi bilan o`quvchilarga bir balandda o`qitilsa, qisqa vaqt ichida o`quvchi uni ifodali o`qishga ulguradi. Bu usul o`quvchilardagi ba`zi xatolarni aniqlashga yordam beradi.

She`rlarni o`qish darslarida she`rlarni yakuniy ifodali o`qishga yakuniy suhbatda alohida diqqat qilinishi kerak.

Shukur Sa`dullaning “Kuz she`ri” 14 misradan iborat. Unda kuz tabiatiga doir belgilar tilga olinadi.

Kuz “oltin” so`zi bilan sifatlanadi. Bunday go`zal faslni o`rganish uchun o`quvchilarni mevazor bog`larga, qovun-polizlarga, paxtazor dalalarga, bug`doyzor, sholi, jo`hori dalalariga ekskursiyaga borish, so`ngra ekskursiyadan olgan tasavvurlari haqida o`quvchilar bilan suhbat o`tkazish yoki mevazor bog`lar, paxtazor dalalarning rasmlari solingan materiallar bilan tanishtirib, shu rasmlar yuzasidan suhbat o`tkazish lozim. Keyin “Kuz she`rini” ifodali o`qishda o`qituvchi quyidagilarga e`tibor beriladi: Birinchi bayt(ikki misra) rivoya shaklida shoshilmasdan, asta-sekin; Ikkinchi, uchinchi va to`rtinchi ohangi ko`tarinki ruhda, o`rtacha surat bilan mantiqiy urg`ularga, pauza(to`xtam) larga alohida diqqat qilib o`qiladi. Masalan:

G`ir-g`ir shamol yeladi

Buni hamma biladi

O`giradi yelga yuz:

- Marhamat! Kel, oltin kuz!

Maktab borar qiz-o`g`il

Qo`lda kitob hamda gul.

She`r shu tarzda ko`tarinki kayfiyat bilan ifodali o`qiladi. She`r misralarni ifodali o`qish orqali o`quvchilarning ko`z o`ngida kuz manzaralari gavdalanadi, ular kuzning go`zalligini his etadilar.

Xulosa qilib aytganda, 4-sinfda she`rlarni o`rganishda shunga erishish kerakki, she`r yosh avlodni barkamol inson qilib, tarbiyalashda his-tuyg`ularga kuchli ta`sir qiladigan ularni ma`naviy jihatdan yuksaltiradigan vosita bo`la olsin.

2.2.4-sinfda she`riy hikoya (epik she`r) larni o`qish yo`llari.

Boshlang`ich sinflarda she`rni o`qiganda kichik yoshdagi o`quvchilar tabiat va jamiyat voqea hodisalarni poetik tasviridan hayajonlanishlari muhim ahamiyatga ega. Boshlang`ich sinflarda she`r tarzida yozilgan hikoyalar, ya`ni she`riy hikoyalar o`qitiladi.

She`riy hikoyada (epik she`rlarda) syujet yangi voqealar sistemasi va uning rivoji xarakterlidir.

4-sinfning “O`qish va nutq o`stirish” dasturidan Abdulla Oripovning “Dehqonbobo va o`n uch bolakay qissasi” va “Sharq hikoyasi”, Munavvar Qori Abdurashidxonovning “Har kim ekanin o`rar”, Anvar Obidjonning “Bo`rining tabib bo`lgani haqida ertak”, Shukur Sa`dullaning “Laqma it”, H.H.Niyoziyning “Rostgo`y bola ” va shu kabi bir qancha epik she`rlari ya`ni sheriya hikoyalari berilgan. Bunday epik she`rlarni o`qitish orqali o`quvchilar she`riy asarda tasvirlangan real hayot manzarasi, ulug` kishilar xarakteri ko`tarinki ruhda tasvirlanishi va yozuvchining shaxsiy tuyg`ulari bilan tanishtiriladi.

She`riy hikoyalarni o`qish darslarida o`quvchi she`rning asosiy (g`oyaviy) mazmunini tushunshagina uni ifodali o`qiy oladi. Shuning uchun epik she`rlarni tahlil qilib uning mazmunini o`quvchilarga tushuntirish lozim.

O`quvchilar epik she`rlarni o`qir ekanlar undagi har bir so`z har bir iboraning ma`nosini matnning ma`lum bir qismini yoki butunmatnda

ifodalangan fikr mazmunini aniq bilib va to`g`ri xulosalar chiqara olishlari kerak. Buning uchun mazmuni o`quvchular uchun tuyulgan so`z ibora tasvirlar ustida izoh beriladi, qisqa-qisqa suhbatlar o`tkazadi, qayat-qayta o`qitadi, matnda ifodalangan asosiy mazmuni yoritishda qanday? Nimaga? Nima uchun? Necha? kabi so`roqlar beradi.

O`qiladigan she`r tahlili o`qish darsining eng asosiy, muhim qismidir. Chunki she`r ustida olib boriladigan o`quvchining bilimini kengaytiradi, ongli, to`g`ri, tez va ifodali o`qish malakasini oshiradi, badiiy adabiyotga havasni kengaytiradi, nutqni boyitadi.

O`qituvchi boshlang`ich sinflarda epik she`rlarni tahlilini quyidagicha olib borishi mumkin:

1. Epik she`r tahliliga tayyorlanish. Buning uchun darsgacha she`rni o`qib uning mavzusi, mundarijasi, g`oyaviy mazmuni bilan chuqur tanishib chiqish.
2. She`rlarning mavzusi, mundarijasi haqida o`quvchilarga qisqacha ma`lumot berish.
3. She`rning bir qismini ifodali o`qib ko`rsatish.
4. She`rda ifodalangan go`yaviy mazmunini, tasvirlangan obrazlarning dunyoqarashi, xarakterini ko`rsatma materiallar faktlar bilan yoritib boorish.
5. She`rda ishlatilgan so`z iboralarning fikr bayon etishdagi ahamiyatini qanday o`rinlarda va nima uchun ishlatayotganini tushuntira borish.
6. She`r mazmuni ustida mustaqil fikr yuritish, xulosalar chiqarishga o`quvchilarni jalb qilish.

Epik she`rlar tahlili o`qituvchi o`quvchilarning javoblariga diqqat qilishi, ular matdagi so`z iboralar mazmuniga tushunib yoki tushunmasdan o`qiyotganliklarini tekshirib ko`rish kerak.

Har bir obraz she`rdagi asosiy fikr mazmuni ocha borishda bir-biri bilan bog`liqdir. Shuning uchun o`quvchilar epik she`rlar mazmuni obrazlarda, tasvirda qanday ochila borishini tushina borishi kerak. Masalan, Tursunboy

Adashboyevning “Navoiy bobomlar” sheʼriy hikoyasi mazmuni savollar yordamida gapiritilishi mumkin.

Boshlangʻich sinflarda obraz deb asarda qatnashgan inson tushuniladi. Ammo bu obraz hayotiy bu nvoqea hodisalar bilan bogʻlangan holda mavjuddir. Obraz bu shakl va mazmun birligidir. Bolalar adabiyotida obrazning mazmunini uning gʻoyaviy tabiati belgilaydi. Hikoya qiluvchi shaxs yoki yozuvchi shu obraz orqali nimani koʻrsatmoqchi? Maqsadi nima ? shu masalalar obraz orqali ifodalangan boʻladi. Sanʼat asari badiiy shakli uning tiliga xos xulosalar yordamida vujudga keltiriladi. Adabiyot obrazining oʻziga xos shakli soʻzdir. Obrazdagi tipiklik yaʼni shu obrazning oʻziga xos xususiyatlari bilan insonlarning hammasiga xos xususiyatlardagi mos kelishik shakl mazmunning birligini hosil qiladi. Demak, badiiy asar shakl va mazmunining birligi hamda badiiy obraziga xos tipiklik xususiyatlari boshlangʻich sinfdayoq, asar matni ustida ishlayotgan vaqtda, uning gʻoyaviy yoʻnalishini qisqacha tahlili qilish bilan chegaralanmay balki, tasviriy ifodalash vositalari va bu vositalarning obraz yaratishdagi ahamiyatiga ham eʼtibor berish zarurligini koʻrsatadi.

4-sinfda epik sheʼrlarni oʻqish darslarida undagi obrazlarini oʻrganish ishlari matnni mustaqil oʻqish jarayonida bajariladi. Buning uchun oʻquvchilar sinfda sheʼrni bir necha marta qaytat-qayta oʻqiydi. Har bir oʻqish oldiga alohida maqsad qoʻyiladi: birinchi oʻqish vaqtida sheʼrning bosh qahramoni asosiy obraz aniqlanadi; ikkinchi marta oʻqishning maqsadi bosh qahramon haqida hikoya yaratish uchun material toʻplashdir; uchinchi marta oʻqilganda suhbat uchun qahramonning xatti-xarakterlariga baho beruvchi materiallar toʻplanadi.

4-sinfda epik sheʼrlarni oʻqish va unda qoʻllanadigan shbatning maqsadi aslini olganda, koʻchma maʼnodagi (metoforik xarakterdagi) soʻz va iboralarning maʼnosining yaxlit gap yoki matndan olingan parcha mazmuni bilan bogʻliq holda osonlikch atushuntirishdan iboratdir.

Bunday tayyorgarlik va suhbat ishlari oʻquvchi koʻzi oldida asar qahramonini mazmunini yaqqol gavdalantiradi.

Boshlang'ich sinflarda o'tiladigan epik she'rlar g'oyasini o'quvchilarga yetkazish va ularga obrazlarni tasvirlash uchun ishlatilgan so'z va obrazli iboralarni o'rganishning ahamiyati katta. Chunki shu yo'l bilangina o'quvchilarda obrazli tasavvur hosil qilinadi. Estetik his-tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatiladi, nutq boyligi oshiriladi, bog'lanishli nutq shakllantiriladi.

Masalan 4-sinfda Shukur Sa'dullaning "Laqma it" mavzusidagi epik she'ri o'tilganda undagi bosh obraz itning ishyoqmasligi tufayli yozda yallo qilib yurishi, qishning ayozli qirovli kunlari boshlangach boshpana izlashi boshqalarga va o'ziga yozda albatta uy qurib olishi haqidagi va'dasi va bu va'dani ustidan chiqmasdan yana xor-zor bo'lishi hikoya qilinadi. " Qish g'amini yozda ye" maqoli she'rning asosiy g'oyasi bo'lib hisoblanadi. She'rda "qaltiradi dir-dir", "har bir tukin nayza deysiz", "paxmoq bo'ldi mo'y junlari" kabi misralar itning qishdagi ahvolini tasavvur qilishga yordam beradi. Uning o'ziga xos xislatlarini yorqinroq ko'rsatishga, shular yordamida she'r g'oyaviy mazmunini yaqqolroq ifodalashga xizmat qiladi.

She'r matni ustida ishlanar ekan, o'qituvchi she'rdan itning qishdagi ahvolini ko'rsatuvchi parchalarni toping va o'qib bering degan topshiriqni beradi.

O'quvchilar:

Birdan tushib qoldi sovuq

Itning ko'rpa-to'shagi yo'q...

Na qilarin bilmas kuchuk,

Qo'rqqanidan taoshar uchuq.

Har bir to'kin nayza deysiz,

Itni ko'ribsovuq yeysiz.

Kunlar o'tdi birin-ketin,

It yo'qotdi yarim etin.

Paxmoq bo`ldi mo`y-junlari

O`lmay qolib qish kunlari.

parchalarini o`qiydilar.

Bu parchalardan ifodalangan itning ahvolini o`z so`zlari bilan tushuntirib beradilar.

O`qituvchi ishyoqmas itning qishda boshpana izlab sarson bo`lganini uning yolg`onchiligi barchaning joniga tekkanligi xususida izoh berib, quyidagi savollar bilan murojaat qiladi:

1. It hayvonlarga qanday yalinib yolvoradi?
2. Mushuk ichki sigirlar itni nima uchun uylariga kirgizmadilar?

O`quvchilar itning dangasaligini quyigai matndan o`qib ko`rsatadilar:

- Kechir, -dedi, yolvordi it,
Mushuk dedi:-yalinma, ket!

Ko`z yosh to`kar kuchuk sho`rlik,

- Yomon bo`ldi bu ko`rgulik

Uy qurardim, attangki,qish,

Qishda qilib bo`lmaydi ish.

Ketmon botmas yer o`yganda,

Qish quritmas g`isht qo`yganda

Qo`lni suvga urib bo`lmas

Xullas qishda uy qurilmas.

Yalinadi yalqov kuchuk:

- Rahming kelmas menga nechuk?

Yoz bo`yi yallo qilib yurgan itning har yili qishda tortgan azob-uqubatlari uning fe`lini o`zgartirmaganligini hayvonlar allaqachon bilib olganlar.

Bu ularning itga bergan javoblaridan ham namoyon bo`ladi.

Moshxon kular ko`zin suzib:

- Aldoqchi! Deb bo`yin cho`zar
- O`tgan yili ko`z yosh to`kding,
Issiqqina uyga cho`kding.

Quvding meni ko`cha-ko`yga,

Kirolmadin erkin uyga.

Shu tariqa o`quvchilar echkining, sigirning ishyoqmas itga javoblari she`r matnidan topib o`qib beradilar:

- Sen laqmani men bilaman,
Kela ko`rma yo`q qilaman.

Yozi bilan laqqilading

Meni ko`rsang akillading.

Issiq bo`lsa suvda suzding,

Qorning ochsa g`o`ra uzding.

Salqin joyda qilding rohat,

Sovuqqa ham qilding-da toqat.

Menga bunday xiyla qilma,

Sigirlarni axmoq bilma.

Ishontirding o`tgan yili,

Rahm qildi hayvon eli.

She`r tahlili davom ettirilar ekan, itning bir amallab qishni o`tkazganligi, ammo yoz yoz kelib yana o`z va`dasini unutganligi, qishda tortgan azob-uqubatlarini unutganligini aniqlashga o`tiladi.

O`qituvchi. Itning yozda yozni qanday o`tkazganligini, u nima uchun o`ziga uy qurmaganligini ifodalangan parchani toping va o`qing?

- O`ynab olay, keldi bahor
Deb sanqiydi erta bahor

Yoz bo`yi tinim bilmas
Sang`imoqni kanda qilmas

Issiq kunda cho`miladi
Qumda oyoq ko`milady

Salqin yerda xurрак otib,
Dam oladi beg`am yotib

Hamma ishda, kuchuk bekor:
Menga deydi uy na darkor?

Bir gap bo`lar qishda,- deyar,-
Erta g`amin eshak yeyar...

Bu parchada shoir itning yalqovligini qanday ifodalagan, u o`zini-o`zi nima deb yupantirib oqlaydi kabi savollari bilan o`qituvchi o`quvchilar diqqatini itning xarakter xususiyatini ochib berishga qaratadi va ko`zi oldida yalqov, dangasa, laqma itning obrazi yorqin tasavvur qilinishiga ko`z oldilarida gavdalanishiga qaratiladi. Shoirning xulosasi ifodalangan parchani topib o`qish va uni tushuntirish so`raladi:

O`quvchilar:

Yoz yemasang qishning g`amin,

Holingga voy bo`lgin amin.

Bu xulosa bilan “Qish g`amini yozda ye” maqoli bilan aloqadorlikni o`quvchilar o`z fikrlari bilan tushuntirib beradilar.

Shu tarzda o`qib, tahlil qilingan ushbu mavzu o`quvchilarda mehnatsevarlik hislatlarini tarbiyalashga, yalqovlik, dangasalik va yolg`onchilik kabi salbiy illatlarning oldini olishga, o`zi va atrofdagilar uchun ma`suliyatli bo`lishga undash uchun kabi fazil;atlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu parchda laqma it obrazi orqali o`quvchilar tafakkuriga singdiriladi.

She`r mazmuni va uning obrazlarini o`quvchilar qanchalik tushunganliklarini bilish uchun she`r yuzasidan suhbat uyushtiriladi.

She`riy asarlarni o`rganishda yangi pedagogik texnologiyalarni qo`llash.

Keyingi paytlarda ta`lim-tarbiya nazariyasi va amaliyotida jiddiy o`zgarishlar ro`y berdi. Natijada avvallari an`ana bo`lgan ta`lim jarayonida qo`llanadigan metodlar o`rniga yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslangan interfaol metodlar kirib kela boshladi. Mavzularning o`quvchilar tomonidan o`zlashtirilishi va ularning mustaqil fikr yuritishlariga undash bevosita o`qituvchi faoliyatiga bog`liqdir. Zero, yangi ta`lim standartlarini o`zlashtirish kafolati yangicha zamonaviy metodlarni qo`llashni talab etadi.

Ta`lim tizimidagi islohot munosabati bilan boshlang`ich ta`lim oldiga qo`yilgan talablar o`qish darslarida pedagogik texnologiyalarning rivojlantiruvchi, differentsiatsiya, shaxsni muayyan maqsadga yo`naltirish, izlanish, muammoli o`qitish, mustaqil ish usullaridan foydalanishni taqozo etmoqda. Shuni hisobga olgan holda boshlang`ich sinf o`qish darslarini samarali tashkil etishga yordam beradigan, o`quvchining faolligini oshiradigan mustaqil ish, yarim izlanishli muammoli o`qitish, musobaqa–bellashuv metodlaridan, turli interfaol metodlardan foydalaniladi. Darslarni aqliy hujum, mustaqil tahlil, ta`limiy o`yin, turli sahna

ko`rinishli andazasiz usullardan foydalanib uyushtirishga alohida e`tibor qaratiladi.

4- sinf o`qish darslarida she`rlarni o`rganishda ham o`quvchilarning she`rni chuqur o`zlashtirishlarini, uni tahlil qila olishlarini ta`minlash kerakligini hisobga olgan holda metod tanlashga e`tibor qaratiladi. Bunda interfaol metodlarni qo`llash maqsadga muvofiqdir. Chunki zamonaviy ta`limni tashkil etishga qo`yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni yetkazib berish, ularda ma`lum faoliyat yuzasidan ko`nikma va malakalarini hosil qilish, shuningdek, o`quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko`nikma hamda malakalar darajasini baholash o`quvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta`lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda bu borada katta tajriba to`plangan bo`lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. «Interfaol» atamasi inglizcha “interact”-o`zaro tasirlashishi (yoki “interaction”-o`zaro ta`sir) so`zidan olingan bo`lib, biror faoliyat yoki ma`lumot o`zaro muomalada, o`zaro bahs-munozara, debat usulida, fikrlashni asnosida, hamjihatlik bilan hal qilish ma`nosini anglatadi. Bugungi kunda ta`lim amaliyotida interfaol metodlarning «Aqliy hujum», «Klaster», «6x6», «Guruhlarda ishlash» «Qarorlar shajarasi», “Qadamba-qadam”, “Venn diagrammasi” kabi ko`rinishlaridan foydalanishmoqda. Shuningdek, o`qish darslarining andozasiz noan`anaviy ko`rinishlari ham ta`lim jarayonida qo`llanilmoqda.

Bu metodlarni 4-sinfda she`r o`qish darslarida ham qo`llash maqsadga muvofiqdir. Masalan, Zafar Diyorning “Serquyosh o`lka” she`ri (4-sinf) o`quvchilarni ona diyorimiz, uning tabiati haqidagi qarashlarini kengaytirish maqsadini ko`zda tutadi. Bu she`rni o`rganish darsida o`qituvchi an`anaviy metodlardan chekingan holda uni no`an`anaviy tarzda o`tkazishi maqsadga muvofiq bo`ladi. Unda bahs-munozara metodini qo`llash, aqliy hujumdan

foydalanish o`quvhilar faolligini ta'minlaydi. Buni quyidagi dars ishlanmasi asosida ko`rsatamiz:

Mavzu : Sahovatli diyor

O`quv materiali. Serquyosh o`lka. Zafar Diyor.

Darsning masadi. 1. O`quvchilarni serquyosh o`lka tabiatini va uning in`omlari bilan tanishtirish.

2. O`quvchilarni Vatanimizning boyliklari bilan faxrlanishga o`rgatish.

3. o`quvchilar nutqiga beg`ubor, navo, madh, sharbat, tortiq so`zlarini kiritish.

4. Ifodali o`qish ko`nikmalarini takomillashtirish. Yod olish malakalarini hosil qilish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, lirik she`r o`qish darsi.

Dars shakli. Noan`anaviy dars.

Dars metodi. Izohli o`qish, suhbat, bahs-munozara elementlari va mustaqil ish metodi.

Dars jihozi. O`zbekistonning bog`-rog`lari, qir-adirlari tasvirlangan manzarali rasmlar, Zafar Diyor surati, shoir haqidagi ma`lumot.

Darsning borishi.

3. Yangi mavzuni o`rganishga o`quvchilarni tayyorlash.

So`ng o`qituvchi quyidagi she`riy parchani yod aytadi:

O`tib ketdi qishning sovuq

Ham bo`ronli kunlari.

Ortda qoldi oy, yulduzsiz,

Tim qorong`u tunlari...

Endi quyosh ko`proq boqar

Dalalarga, bog`larga.

Quchoq- quchoq yog`du sochar

Adirlarga, tog`larga

Bezanishar dala qirlar

Chechak taqar o`tloqlar...

- Shu she`rni o`qiganmisiz?- Bu she`r kim haqda?- qaysi yurtning bahori, tabiati haqida? – Bu she`rni qaysi shoir yozgan?

O`qituvchi o`quvchilar javobini aniqlashtirib to`ldiradi.

Bu she`rni 3-sinfda o`qigansiz. Uni shoir Zafar Diyor yozgan. Bu she`r O`zbekiston tabiati, bahori haqida ekan, to`g`ri fikrlarni aytdingiz.

- Zafar Diyorning yana qaysi she`rlari bilasiz?(“Archa qo`shig`i”, “Binafsha”, “Qushlar haqida qo`shiq”, “Kel, uchaylik shimolga” she`rlari).
- Zafar Diyor haqida nimalar bilasiz? Shoirning portreti doskaga ilib qo`yiladi.

O`qituvchining hikoyasi. Zafar Diyor Namangan viloyatining Chust tumanida tug`ilgan. Ota- onasi dehqon bo`lgan. Kambag`allikda kun kechirishgan. Zafar Diyor to`rt yoshga to`lganda uning oilasi Toshkentga ko`chib keladi. Onasi bosmaxonada ishlaydi.

O`zi esa maktabda o`qiydi. Keyin Toshkentdagi 7-bolalar uyida tarbiyalanadi.

Shoirning birinchi she`rlar to`plami 21 yoshida chiqadi. To`plamlari ko`rsatiladi. She`rlaridan parchalar o`qib beriladi.

- Bolalar, bugun shoirning qaysi she`rini o`qir ekanmiz?

II. Anglash bosqichi. Maqsad. “Quyosh o`lka” she`ri orqali O`zbekiston tabiati haqidagi tushunchlarni boyitish, tabiatini sevish va qadrlashga o`rgatish.

Metod. Suhbat, mustaqil ish metodi.

1. **She`r bilan tanishtirish.** O`qituvchi she`rning nomini, muallifini doskaga yozadi va she`rni yod aytib beradi.
2. **She`r yuzasidan dastlabki suhbat.** – She`r sizga yoqdimi? – She`r nima haqida ekan? - She`r kimning tilidan aytilgan? - Shoir Vatan tabiatini qanday tasvirlagan?
3. **Ichda o`qish. Topshiriq.** – She`rni ichingizda o`qing. Uning qaysi to`rtligi sizga juda yoqqanini aytasiz. – She`r matnidagi ma`nosi sizga tushunarsiz bo`lgan so`zlarni daftaringizga yozing.

Topshiriqlarni qanday bajarganliklari aniqlanadi. O`quvchilar o`zlariga yoqqan to`rliklarni o`qib beradi. O`qituvchi “Nima uchun yoqdi?” savollariga javob oladi.

4. Lug`at ishi.

Madh – maqtov

Navo – kuy, qo`shiq, ashula

Tortiq – sovg`a

Sharbat – mevalarning suvi

Dong`i- dovrug`i, nomi

Beg`ubor so`ziga ma`nodosh so`z toping(toza, g`uborsiz, tiniq).

5. She`rlarni qismlarga bo`lib o`qitish.

1. She`r matni ustida ishlash. She`r matnining 1-qismi 1- o`quvchiga (8 qatori) o`qitiladi. O`qilgan qism yuzasidan savol-javob o`tkaziladi:

- Shoir o`z Vatani, uning havosini qanday ta`riflagan?(Vatanimiz dovrug`i, dong`i butun olamga yoyilgan. Uning havosi sof, toza, beg`ubor. Bu odamlarning ko`nglini shod etadi.) 2- o`quvchiga she`rning 2-qismi (12 qatori) o`qitiladi.
- Bu bandlarda shoir Vatanimiz qir-adiri va bog`larini qanday ta`riflagan? (Qir-adirlar ko`m-ko`k o`tlar bilan,)gul-lolalar bilan qoplangan.
- Gulzor va bog`larda bulbullar gulni madh etadi. Bundan ko`ngillarimiz zavqlanadi.
- Bog`larida sharbatga to`la mevalar g`arq pishgan.

Ularni har qadamda uchratasiz, gullar yo`lingizga to`shalib yotadi, - deydi shoi.)

3- o`quvchiga she`rning oxirgi 8 qatori o`qitiladi. Shoir Vatanimizning yil fasllarini qanday maqtaydi? (Har bir fasl bir-biridan yaxshi. Har bir fasl o`z ne`matlarini xalqimizga tortiq qiladi.)

- Nima uchun shoir O`zbekistonni “Serquyosh o`lka” deb nomlagan? (Chunki hamma fasllarda ham quyosh nur sochib turadi. Odamlarga issiq taftini ulashadi.)

O`quvchilarning fikri to`ldiriladi. O`lkamizda kuz fasli hukmron, bahorda boshlangan mehnatning natijasi o`zini namoyon qilmoqda. Bu jannatmakon

o`lkaning bir tomoni tog`, qir-adirlar, lolazor bo`lsa, bir tomoni gulzor- u bog`lar. Ular shirin-shakar mevalarga boy. Shoirimiz Zafar Diyor yurtimizning ana shu saxiyliklarini “Serquyosh o`lka” she`rida madh etgan.

III. Fikrlash bosqichi. Maqsad. O`quvchilarning she`r maxmunini ongli o`zlashtirib olganliklarini va ularni ifodali o`qish malakalarini aniqlash.

Metod. Suhbat.

1. She`rni qismlarga bo`lib ifodali o`qish musobaqasi.

O`quvchilarga o`qiganda har bir satr oxirida tinish belgisi bo`lishi shart emasligi, ritmik to`xtamda ovozni pasaytirmaslik lozimligi, bu tugallanmagan fikrni davom ettirishga imkon berishi eslatiladi. Natijada o`quvchilarda asar mazmun mohiyati bilan birga she`riy nutqning o`ziga xosligi haqida ham ilk tushuncha hosil bo`ladi.

2. Rasmlar ustida ishlash. – Serquyosh o`lkamizning nomi nima deb ataladi?

– She`rdan rasmlarga mos to`rtliklarni topib o`qing.

3. Krossvord.

Bo`yiga.

1. O`zbekistondagi asosiy millat nomi.
2. Bir onadan yuz bola, yuzovi ham bo`z bola. (Uzum)
3. Dum- dumaloq shakli bor, Palovda obro`yi bor. (Behi)
4. Zafar Diyor she`ri nomining birinchi so`zi. (Serquyosh)
5. Shu she`rning ikkinchi so`zi.(O`lka)
6. Yer tagida oltin qoziq, u hammaga bo`lar oziq. (Sabzi)
7. Boshimizdagi ko`k gumbaz nomi. (Osmon)
8. Oppoq sochli boshlari, daryo bo`lar yoshlari.(Tog`)
9. Meva nomi. (Nok)
10. Bug`doydan tayyorlanadigan dasturxon ko`rki. (Non)
11. Oyna emas jimirlar, tek turolmas. (Suv)
12. Kichkina dekcha, ichi to`la mixcha.(Anor)
13. To`ni silliq tuki yo`q, ichi qizil po`ki yo`q. (Tarvuz)
14. Qir so`zi bilan ko`p qo`llaniladi. (Adir)

15. Poliz ekini. (Qovun)
16. Guli bitta yarim oy, boshginamdan olar joy. (Do`ppi)
17. Rangi har xil, nomi bir xil. (Qalam)
18. Qishda suv tuzini qoplaydi. (Muz)
19. Birlashtirib kiyimni, issiq tutadi sizni. (Tugma)
20. Ikki ajib qulog`i bor, biri tinglar, biri so`zlar. (Telefon)
21. Tikuvchiga o`rtoq o`zi, bittagina jajji ko`zi. (Igna)
22. Yoz, kuz bo`yi chirqillab, don tashiydi pirillab. (Chumchuq)

Eniga. Bo`yiga katakchalarni to`g`ri to`ldirsangiz, siz o`rgangan bo`lim nomi kelib chiqadi. (O`zbekiston – Vatanim manim) Krossvord vaqt imkoniyatiga qarab sinfda yoki uyda bajariladi.

4. Test yechish.

5. Darsda o`rganilganlar asosida tarbiyaviy xulosa chiqarish.

- Tabiat qo`ynida o`zingizni qanday his etasiz? – Odamlarning Vatanining tabiatini sevish bilan cheklanishlari yetarli mi? Inson unga qandaym nosabatda bo`lishi lozim deb hisoblaysiz?

6. Uyga vazifa. She`rni yod olish.

- 7. O`quvchilarni baholash.** Doskaning bir tomoniga ilingan o`quvchilar familiyasi va ismining to`g`risiga sariq (5 ball), qizil (6 ball), ko`k (7 ball) va yashil (8-10 ball) rangdagi doirachalar yopishtirib boriladi.

4-sinfda Quدرات Hikmatning “Bahor” she'rini o`qish darsini ham yangi pedagogik texnologiyalar asosida uyushtirish mumkin. Bu she'rni o`qish darsi ishlanmasi quyidagicha bo`ladi:

Mavzu: Bahor uyg`onish fasli

O`quv material. Bahor. Quدرات Hikmat.

Darsning maqsadi.

1. O`quvchilarning bahorda tabiatda, hayvonot va qushlar hayotida bo`ladigan o`zgarishlar haqidagi bilimlarini boyitish.

2. Bahor faslida tabiatni kuzatishga, undagi o`zgarishlarni payqab olishga o`rgatish.

3. Tabiatni sevish, asrash, uning gullab yashnashi uchun hissa qo`shishga yo`llash.

4. O`quvchilar nutqini so`zlar bilan boyitish.

Dars turi. Yangi bilim beruvchi, she'r o`qish darsi.

Dars shakli. Noan'anaviy dars.

Dars metodi. Kichik guruhlar dars bilan ishlash, mustaqil ish metodi, suhbat metodi, tarmoqlash metodi.

Darsning jihozi. Korton qog`oz, rangli flomaster, gul, qushlar rasmi, tabiiy hodisalar tasviri.

Tashkiliy qism. Sinf 4 guruhga ajratib o`tqaziladi.

Darsning borishi.

I. Da'vat bosqichi. Maqsad. O`quvchilarning bahor fasli, undagi hayot haqidagi tushunchalarini aniqlash. Yangi mavzuni o`rganishga tayyorlash va qiziqish uyg`otish.

Metod. Mustaqil ish metodi.

1. O`quvchilar guruhiga o`tilgan mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar yozilgan kartochka solingan konvertlar beriladi.

Savol-topshiriqlar.

1-guruh uchun: Bahor fasli haqida qaysi asarni o`qib keldingiz? Unda tabiatdagi ob-havo o`zgarishlari qanday tasvirlangan? So`zlab bering.

— Nasim, firdavs so`zining ma'nosini izohlab bering.

— «Bahor ta'rifida» matnining 1-qismini ifodali o`qib bering.

2-guruh uchun: «Bahor ta'rifida» asarida erning yuz qismidagi, dov-daraxtlardagi o`zgarishlar qanday tasvirlanadi? So`zlab bering.

— Chin so`zining ma'nosini izohlab bering.

— Asarning 2-qismini ifodalai o`qib bering.

3-guruh uchun: — Qushlar hayoti qanday tasvirlanadi? Shularni so`zlab bering.

— Kaklik, oqqush, o`rdak rasmlar ichidan tanlab ko`rsating.

— Asarning 3-qismini ifodali o`qib bering.

4-guruh uchun: — Hayvonlar harakati qanday tasvirlangan? Shu o`rni hikoyalab bering.

Jayronning rasmiga qarab, uning tashqi ko`rinishini tasvirlang.

— Asarning 4-qismini ifodali o`qib bering. O`quvchilar to`plagan ballar e'lon qilinadi.

2. Badiiy til vositalari ustida ishlash.

O`qituvchi: Bugun darsda daxatdagi olmalardan uzishga ruxsat beraman. Faqat uning orqasiga yozilgan savol-topshiriqni bajarsangiz, olma sizniki bo`ladi va uni o`z savatchangizga solasiz.

Har bir guruhdan o`quvchilar navbat bilan chiqib olmadardan oladi va shu vaqtning o`zidayoq savollarga javob beradi:

O`qing. Qanday badiiy vosita qo`llanganini ayting.

Uyquga kirgan daraxtlar yana yashil to`n kiydi, oq, sariq, ko`k, qizil rangli yoping`ichlar bilan bezandi.

O`qing. Qanday badiiy vositalar qo`llanganini ayting.

Bo`z yer yuziga yashil parda tortdi, go`yo Xitoy karvoni

Chin hariri ipak matolarini har tomonga yoydi.

O`qing. Qanday badiiy vosita qo`llanganini ayting.

Qora qarg`a tumshug`ini ko`pirtirib qag`illaydi, uning ovozi tantiq qizning ovozi kabi yoqimsizdir.

O`qing. Qanday badiiy vosita qo`llanganini ayting.

Mag`rur turnalar ko`kda ovozini baralla yangratmoqda, tizilgan tuya karvonidek uchmoqda.

Guruhlar balli e'lon qilinadi.

3. Matnni topshiriqlar asosida o`qitish.

— «Bahor ta'rifida» matnini o`qing. Undan ko`chma ma'noda qo`llangan so`zlarni toping. (Bahor nafasi, firdavs eli, o`z hukmiga, harir yoping`ich, har tomonga yoydi, kaklik kulmoqda, gullar yuz ochib, qah-qah urib kulmoqda kabi).
Guruhlarning balli e'lon qilinadi.

4. Bahor fasli haqida o`quvchilar tushunchasini aniqlash.

- Bahor fasliga xos xususiyatlarning tarmoqlash usulida ifodalang, uni doskaga iling va izohlab bering.

- «Bahor» she'ri muallifi Quدرات Hikmat haqida nimalar bilasiz? Og`zaki gapirib berishga tayyorlaning. Qaysi she'rlarini yod bilasiz? (O`quvchilar «Qish to`zg`itar momiq par» she'rini aytishadi)

O`qituvchi hikoyasi.

Q. Hikmat bolalar uchun she'r yozgan. Shuning uchun bolalar shoiri deb aytishadi. U Toshkentda tug`ilgan. Pedagogika oliygohida o`qigan. U atigi 43 yil yashagan. Lekin bolalar uchun ko`plab she'rlar to`plamini yaratgan. Uning «Mening Vatanim», «Baxtli bolalar»). «Uch o`rtoqning sovg`asi», «Soatjonning soati», «O`g`lim bilan suhbat» to`plamlari bor.

Guruhning bali e'lon qilinadi.

II. Anglash bosqichi.

Maqsad. «Bahor» asari orqali o`quvchilarning bahor tabiati, qushlarning harakati haqidagi bilimlarini boyitish, ifodali o`qish ko`nikmalarini takomillashtirish.

O`quvchilar nutqiga mayin shamollar, soyabon tollar, tong ellari, o`tlar tebranar, ko`kni quchgan teraklar iboralarini kiritish.

Metod. Muqtaqil ish metodi.

1-topshiriq. She'rni ichingizda o`qing. Ifodali o`qib berishga tayyorlaning. O`qish uchun 1-2 daqiqa beriladi. So`ng har bir guruhdan 4-5 o`quvchiga o`qitiladi. Ular baholanib boradi, guruhning ifodali o`qish bo`yicha umumiy balli e'lon qilinadi.

2-topshiriq. Darslikdagi savol-topshiriqlar ustida ishlang. Har bir guruh o`z ichida savol-topshiriqlarni bo`lib olib tayyorgarlik ko`rsin. Tayyor o`quvchi turib javobini aytaveradi. Guruhlar bir-birining javobini to`ldiradi.

III. Fikrlash bosqichi.

Maqsad: O`quvchilarning mavzu yuzasidan olgan bilimlarini hayotda ko`rgan-kuzatganlarini, eshitganlari bilan bog`lab ifodalab berishga o`rgatish. Dars taassurotlarini eshitish orqali keyin darsning vazifalarini rejalashtirib olish.

Metod. Suhbat metodi.

Savollar: — Bugungi darsda nimalarni bilib oldingiz? She'ni o`qishdan oldin bahor, uning ob-havosi, tabiat ko`rinishi, qushlar hayoti haqida nimalarni bilar edingiz? Bugungi darsda qanday qiyinchiliklarga duch keldingiz? Dars sizga yoqdimi?

— Sizningcha, darsda qaysi guruh faol ishtirok etdi?

O`quvchilarning fikri umumlashtirib, guruhlar to`plagan ball va ayrim faol o`quvchilarning bahosi e'lon qilinadi.

Uy vazifasi: She'ni yod olish. She'r mazmuniga mos rasm chizish.

Ko`rinadiki, 4-sinflarda she'rlarni o`rganish darslarini yangi pedagogik texnologiyalar asosida ham tashkil qilish mumkin. Bunda darsning samaradorligi yuqori bo`ladi, dars mashg`uloti qiziqarli bo`ladi. Ayniqsa, darsda turli interfaol metodlarni qo`llab, uni noan'anaviy shaklda tashkil qilish diqqatga sazovordir. Ta'lim samaradorligini oshirish, Davlat ta'lim standartlarining bajarilishini ta'minlash va ta'limning sifat ko`rsatkichini kafolatlashda interfaol metodlarning roli kattadir. Shuning uchun bu metodlarni dars jarayonida o`rinli qo`llash maqsadga muvofiqdir.

Xulosa

Bugungi kunda yuksak ma'naviyatga ega bo`lgan, har tomonlama rivojlangan sog`lom avlodni tarbiyalab, yoshlarga zamonaviy pedgogik texnologiyalar asosida ta'lim berish mamlakatimizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan ustivor vazifalardan biri hisoblanadi.

Ta'lim va tarbiyaning yangicha mazmuni o`quvchilarning bilim sifatini yanada oshirish, o`quv-tarbiya jarayonini yana takomillashtirish; o`qitish metodlarini hozirgi kun talablari darajasiga ko`tarish; bolaning bilim qobiliyatlarini maksimal darajada rivojlantirish; berilgan bilim va ko`nikmalarning ongli, puxta o`zlashtirilishiga erishish; o`quvchilarning mustaqil amaliy mehnat ko`nikmalarini o`stira boorish kabi vazifalarni ko`zda tutadi. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilishda 4-sinf o`qish darslari ham katta o`rin egallaydi. Ayniqsa, 4-sinf she'riy

asarlarni o`rganish darslari o`quvchilarda nafosat hissini shakllantirishda, ularning ma`naviy-ruhiyat olamini boyitishda katta ahamiyat kasb etadi.

4-sinf o`quvchilari she`riy asarlarni o`rganish darslarida “O`qish kitobi” darsligida berilgan A.Oripov, A.Avloniy, Erkin Vohidov, Zafar Diyor, Sh.Sa`dulla, Quadrat Hikmat, Miraziz A`zam, Anvar Obidjon, T.Adashboyev, Sulton Jo`ra kabi ko`plab shoirlarning she`riy asarlari bilan yaqindan tanishadilar. Ayniqsa, Zafar Diyorning “Serquyosh o`lka”, Sh. Sadullaning “Kuz”, A.Oripovning “Sharq hikoyasi”, Mirtemirning “Qush tili” kabi she`rlarini o`quvchilar sevib o`qiydilar. Ularni yod oladilar, bu she`rlar o`quvchilarda Vatanga muhabbat tuyg`usini shakllantirishda, ona diyorni ardoqlash tuyg`ularini, tabiatga mehr hislarini rivojlantirishda juda katta o`rin tutadi.

4-sinfda har bir she`rning tarbiyaviy jihatlariga e`tibor bergan holda, ularni o`qish darslarini samaradorligini oshirish har bir o`qituvchining mas`uliyatli vazifasidir.

4-sinf she`rlarni o`rganish darslarida asosiy ish usuli ifodali o`qish sanaladi. Ifodali o`qishni shunday olib boorish kerakki, she`rni ifodali o`qiganda o`quvchilarning unda tasvirlangan poetik tasvirlardan hayojonlanishlariga eishish muhim bo`ladi.

Ifodali o`qilgan she`r mazmunan va g`oyasi yuzasidan suhbat uyushtirishadi. Suhbat o`qilayotgan she`rning o`quvchilar tomonidan to`la idrok qilinishini taminlashga xizmat qilishi zarur. Shuning uchun savol berishda, uni to`g`ri shakllantirishda o`qituvchi ziyrak bo`lishi maqsadga muvofiqdir.

She`rlarni o`qishda uning matnida o`quvchilar uchun tushunarsiz bo`lgan so`zlar va iboralar ustida ishlash ham muhimdir. Chunki, bu jarayonda o`quvchilarning nutqi o`stiriladi, lug`atlari yang- yangi so`zlar bilan boyitiladi. Shu bilan birga, she`rda ifodalangan tasviriy ifoda vositalari ustida ishlash ham o`quvchilarni o`zbek tilining sehrli olamiga olib kiradi.

4-sinflarda o`rganiladigan ko`pgina she`rlarni tahlil qilib ifodali o`qish mashq qilingach, ifodali yod aytib berish vazifasi topshiriladi.

She`riy nutq yengil yodlab olinadi, bolada estetik his-tuyg`u uyg`otadi.

Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Bunda dars jarayonida interfaol metodlarini qo'llash orqali erishiladi.

4-sinfda she'rlarni o'rganishda interfaol meytodlaridan "Aqliy hujum", "Klaster", "Venn diagrammasi" kabi metodlarni qo'llash, "Qadamba -qadam", "Omadlar eshigi" kabi usullardan foydalanish dars samaradorligini oshirishda muhim omil bo'ladi. Xulosa qilib aytganda, ma'naviyati yuksak, insoniy fazilatlarga boy yosh avlodnio tarbiyalashda she'rlarni o'qib-o'rganish muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.- Toshkent: "Ma'naviyat", 2008.
2. Karimov I.A. Tarixdan saboq olib, zamon bilan hamqadam bo'lib yashash- bugungi hayotning o'tkir talabi // O`zR Prezidentining intervyusi, "Xorazm haqiqati" gazetasi, 2012, 16-may soni.
3. O`zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni // Barkamol avlod- O`zbekiston taraqqiyotining poydevori.- Toshkent: "Sharq" nashriyot- matbaa konsernining Bosh tahririyati, 1998.
- 4.O`zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" // Barkamol avlod- O`zbekiston taraqqiyotining poydevori.- Toshkent: "Sharq" nashriyot- matbaa konsernining Bosh tahririyati, 1998.
- 5.Barkamol avlod orzusi (Tuzuvchilar: Qurboniv Sh., Saidov H., Ahliddinov R.)- Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa konserni Bosh tahririyati, 1999.
- 6.Boshlang`ich ta'lim bo'yicha Yangi tahrirdagi Davlat ta'lim standart i// Boshlang`ich ta'lim .- Toshkent, 2005.- 5-son, 5,6,8-9-betlar.
- 7.Boshlang`ich ta'lim bo'yicha Yangi tahrirdagi o`quv dasturi // Boshlang`ich ta'lim .- Toshkent, 2005.- 5-son, 21-33-betlar.
8. Boshlang`ich ta'lim konsepsiyasi// Boshlang`ich ta'lim, 1998, 6-son.
- 9.Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o`quv dasturi.- Toshkent, 2010.

10. Anorboyev A. Badiiy asar- ma'naviy boylik// Boshlang`ich ta'lim, 2008, 6-son, 18-bet.
11. Avezov S. Ifodali o`qishga o`rgatish// Boshlang`ich ta'lim, 2006, 4-son, 11-bet.
12. Bobomurodov A., Abdullayev H. O`quvchilarni ifodali o`qishga o`rgatish.- Toshkent: O`qituvchi, 1976.
13. Dolimov Z. She'riy asarlarni o`rgatish// Boshlang`ich ta'lim, 2008, 6-son, 14-bet.
14. Matchonov S., Shojalilov A. va boshqalar. O`qish kitobi. 4- sinf uchun darslik.- Toshkent, "Yangiyul Poligraph servise", 2007.
15. Matchonov S., G`ulomova X., Dolimov Z. 4-sinfda o`qish darslari.- Toshkent: "Yangiyul Poligraph servise", 2007.
16. Matchonov S., G`ulomova X. va boshqalar. Boshlang`ch sinf o`qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish.- Toshkent: , "Yangiyul Poligraph servise", 2008.
17. Nazarova H., Anorboyeva A. O`qish darsi- nafosat olami // Boshlang`ich ta'lim, 2008, 11-son, 5-bet.
18. Qosimova K., Matchonov S. , G`ulomova X., Yo`ldasheva SH., Sariyev Sh. Ona tili o`qitish metodikasi. -Toshkent, «Nosir», 2009.
19. Safarova R., Musayev U., Musagev P., Yusupova P., Nurjanova R. O`zbekiston Respublikasida umumiy o`rta ta'lim strategiyasi muammolari va ta'lim mazmunining yangi modellari, ularni tatbiq etish yo`llari. –Toshkent, 2005.
20. Turdiyev B. 4-7-sinflarda ifodali o`qish.- Toshkent: O`qituvchi, 1978.
21. Yo`ldasheva Sh. Kitobda mujassam sehrli hikmat// Boshlang`ich ta'lim, 2008, 11-son, 4-bet.
22. Internet ma'lumotlari: www.ziyonet.uz